

01-56

13-mart 2023-yil

**"TASDIQLAYMAN"**

O'zbekiston Respublikasi  
Maktabgacha va maktab ta'limi  
vaziri



\_\_\_\_\_ X. Umarova  
“\_\_\_”-\_\_\_\_ 2023-yil

**Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining O'zbekiston Respublikasi Prezidentining  
“2022 - 2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini “Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili”da  
amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida” 2023-yil PF-27-sonli Farmoni 2-bandiga muvofiq aholiga qo'shimcha  
qulayliklar yaratish bo'yicha  
CHORA-TADBIR DASTURI**

No	Chora-tadbir nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Muddati	Mas'ul tarkibiy bo'linma
1.	Nodavlat ta'lim xizmatlarini ko'rsatish faoliyatini litsenziyalash sohasida yaratilgan qonunchilikdagi yangiliklar, imkoniyat va imtiozlar bo'yicha tadbirkorlik subyektlariga tushuntirish ishlari olib borish.	<p>1. Hududlarda litsenziya da'vogarlari va tadbirkorlar bilan uchrashuvlar o'tkazish hamda seminarlar tashkil etish.</p> <p>2. Nodavlat ta'lim tashkilotlari uchun litsenziya talab va shartlari hamda litsenziya olish uchun yaratilgan imkoniyatlar haqida videorolik va boshqa shu kabi media materiallar ishlab chiqish.</p> <p>3. Ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalari orqali yaratilgan imkoniyatlar haqida ma'lumotlar berish hamda intervyular tashkil etish.</p>	<p>2023-yil may-sentyabr</p> <p>2023-yil aprel</p> <p>2023-yil mart-noyabr</p>	<p>Ta'lim sifatini baholash, litsenziyalash va akkreditatsiyalash departamenti <b>(S.Radjabov),</b> Jamoatchilik va ommaviy axborot vositalari bilan ishlash boshqarmasi <b>(D.Sobirova)</b></p>
2.	Nodavlat ta'lim tashkilotlari faoliyatini litsenziyalash sohasidagi mas'ul xodimlar tomonidan davlat xizmatlarini ko'rsatish jarayonlarida yuzaga kelishi mumkin	1. Vazirlikning hududiy boshqarmalari xodimlarining litsenziya talab va shartlariga qat'iy amal qilgan holda	Doimiy	Ta'lim sifatini baholash, litsenziyalash va akkreditatsiyalash departamenti

No	Chora-tadbir nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Muddati	Mas'ul tarkibiy bo'linma
	bo'lgan byurokratik to'siqlar hamda korruption holatlarni oldini olish.	<p>talabgorlar hujjatlarini ko'rib chiqishni nazoratga olish.</p> <p>2. "Litsenziya" axborot tizimi bilan ishslash bo'yicha ko'nikmalarni shakllantirish yuzasidan o'quv-treninglar tashkil etish.</p>	2023-yil may	(S.Radjabov), Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish va raqamlashtirish bo'limi (R.Musurmonov)
3.	<p>Nodavlat ta'lim tashkilotlari faoliyatini litsenziyalash sohasidagi talablar va shartlarini ilg'or xorijiy tajribalar asosida soddalashtirish choralarini ko'rish.</p> <p>Bunda, o'qituvchilarining malaka toifalariga ko'ra salohiyatiga qo'yilgan talablarni yengillashtirish.</p> <p>Bitta sinfdagi maksimal o'quvchilar sonini oshirish orqali "Ta'lim to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga moslashtirishni nazarda tutish.</p>	<p>1. Nodavlat ta'lim xizmatlarini ko'rsatish faoliyatini litsenziyalash sohasi bo'yicha ilg'or xorijiy tajribalarni o'rganib chiqish va tahlil qilish.</p> <p>2. Litsenziya talablari va shartlariga tegishlichcha o'zgartirish va qo'shimchalar kiritishni nazarda tutuvchi hujjat loyihasini ishlab chiqish.</p> <p>3. Normativ-huquqiy hujjat loyihasini o'rnatilgan tartibda tegishli vazirlik va idoralar bilan kelishgan holda Vazirlar Mahkamasiga kiritish.</p>	<p>2023-yil aprel</p> <p>2023-yil may-iyun</p> <p>2023-yil iyul</p>	<p>Ta'lim sifatini baholash, litsenziyalash va akkreditatsiyalash departamenti (S.Radjabov), Yuridik bo'lim boshlig'i (X.Asrarov)</p>
4.	Tadbirkorlar uchun muloqot maydonchalarini tashkil etish.	Davlat-xususiy sheriklik asosida ta'lim tizimidan nodavlat ta'lim tashkilotlarini tashkil etish mavzusida seminar tashkil etish.	2023-yil may-oktyabr	Davlat xususiy sherikchilik asosidagi loyihalarni muvofiqlashtirish bo'limi (F.Kushnazarov)
5.	Pedagoglar, o'quvchilar hamda ularning ota-onalari uchun umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun yaratilgan darslik, metodik qo'llanma va audiokitoblardan foydalanishi uchun qulaylik yaratish.	<p>1. Barcha ta'lim tillarida darslik, metodik qo'llan, audiokitoblarning multimediali ilovalarini ishlab chiqish.</p> <p>2. Darsliklar, metodik qo'llanmalar, audiokitoblarning multimediali ilovalarini vazirlikning rasmiy sayti hamda elektron</p>	2023-yil 1-iyuldan boshlab	O'quv jarayonini metodik ta'minlash va darsliklar boshqarmasi (D.Norboyeva), Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy

<b>Nº</b>	<b>Chora-tadbir nomi</b>	<b>Amalga oshirish mexanizmi</b>	<b>Muddati</b>	<b>Mas'ul tarkibiy bo'linma</b>
		portallar (kitob.uz, dr.rtm.uz)ga joylashtirib borish.		etish va raqamlashtirish bo'limi <b>(R.Musurmonov),</b> Respublika ta'lim markazi <b>(Sh. Sattorov),</b> Respublika bolalar kutubxonasi <b>(D.O'rolov)</b>